



UDK: 316.334.2:330.34:364.4

Asadullo ABDURAXMONOV,
Mustaqil tadqiqotchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston
E-mail:mr.ganiev76_fsu@inbox.ru, ORCID: 0009-0006-6050-2098

FarDU professori, DSc I.Siddiqov taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK VA INKLYUZIV RIVOJLANISH SIYOSATINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik va inklyuziv rivojlanish siyosatining zamonaviy tendensiyalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan inklyuziv rivojlanish siyosatining ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy innovatsiyalar va ijtimoiy kapitalning mazkur jarayonlardagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish va inklyuziv rivojlanish siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, inklyuziv rivojlanish, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy innovatsiyalar, ijtimoiy kapital, ijtimoiy himoya, barqaror rivojlanish, ijtimoiy siyosat.

MODERN TRENDS OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP AND INCLUSIVE DEVELOPMENT POLICY IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the modern trends of social entrepreneurship and inclusive development policy in Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. The study analyzes the role of social entrepreneurship in promoting inclusive economic development, supporting socially vulnerable groups, and strengthening civil society institutions. It also highlights the priority directions of inclusive development policy, as well as the significance of social innovation and social capital in these processes. Based on the findings, scientific and practical recommendations for enhancing social entrepreneurship and improving inclusive development policy are proposed.

Keywords: social entrepreneurship, inclusive development, civil society, social innovation, social capital, social protection, sustainable development, social policy.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ПОЛИТИКИ ИНКЛЮЗИВНОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются современные тенденции социального предпринимательства и политики инклюзивного развития в Узбекистане с социально-философской точки зрения. Исследуется роль социального предпринимательства в обеспечении инклюзивного экономического развития, поддержке социально уязвимых групп населения и укреплении институтов гражданского общества. Особое внимание уделяется приоритетным направлениям политики инклюзивного развития, а также значению социальных инноваций и социального капитала в данных процессах. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации по развитию социального предпринимательства и совершенствованию политики инклюзивного развития.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, инклюзивное развитие, гражданское общество, социальные инновации, социальный капитал, социальная защита, устойчивое развитие, социальная политика.

Kirish. Globallashev, urbanizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida an'anaviy iqtisodiy yondashuvlar bilan bir qatorda ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan biznes modellariga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, kambag'allikni qisqartirish, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslarning iqtisodiy faolligini oshirish hamda mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirishda ijtimoiy tadbirkorlikning ahamiyati sezilarli darajada ortmoqda. Ushbu faoliyat turi iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy foyda yaratishni ham asosiy maqsad sifatida belgilashi bilan boshqa tadbirkorlik shakllaridan ajralib turadi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida iqtisodiy o'sishning yangi modeli sifatida inklyuziv rivojlanish konsepsiyasiga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Mazkur yondashuv

iqtisodiy taraqqiyot natijalaridan jamiyatning barcha qatlamlari teng va adolatli foydalanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy tenglik, inson kapitalini rivojlantirish va barqaror taraqqiyot tamoyillariga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tadbirkorlik inklyuziv rivojlanish siyosatining muhim mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etilib, iqtisodiy faoliyat orqali ijtimoiy muammolarni hal etish, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham inson qadrini ulug'lash, kambag'allikni qisqartirish, aholi farovonligini oshirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida aholini ijtimoiy

qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda ijtimoiy tadbirkorlik va inklyuziv rivojlanish siyosatining o'zaro uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida ham namoyon bo'ladi. U jamiyat a'zolarining tashabbuskorligini oshiradi, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi va davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inklyuziv rivojlanish siyosati aholining barcha qatlamlarini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga faol jalb qilish orqali barqaror taraqqiyotga erishishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy o'sishning ijtimoiy natijalari va jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. So'nggi yillarda "inklyuziv rivojlanish" konsepsiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki ijtimoiy tenglik, adolat va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv sifatida keng qo'llanilmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida ham inson qadri va ijtimoiy adolat tamoyillari turibdi. Xususan, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, yoshlar va ayollar bandligini oshirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [2]. Mazkur jarayonlarda ijtimoiy tadbirkorlik muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy faoliyat orqali ijtimoiy muammolarni hal qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beradi. Shu sababli ijtimoiy tadbirkorlik va inklyuziv rivojlanish siyosati o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, sotsiomadaniy va ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Inklyuziv rivojlanish, ijtimoiy tadbirkorlik va fuqarolik jamiyati institutlariga oid ilmiy manbalar hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatga doir normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv rivojlanishga ta'siri va uning fuqarolik jamiyati bilan o'zaro aloqadorligi konseptual jihatdan tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Inklyuziv rivojlanish tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Inklyuziv rivojlanish jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish va iqtisodiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish imkonini ta'minlashga qaratilgan rivojlanish modelidir [3]. Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sishning faqat statistik ko'rsatkichlarini emas, balki inson farovonligi va ijtimoiy adolat darajasini ham asosiy mezon sifatida ko'rib chiqadi. Amartya Senning "rivojlanish erkinlik sifatida" konsepsiyasiga ko'ra, taraqqiyot insonlarning real imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshadi [4]. Shu ma'noda inklyuziv rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy-falsafiy nuqta nazardan inklyuziv rivojlanish inson qadr-qimmatini e'tirof etish, ijtimoiy birdamlik va fuqarolik hamjihatligini mustahkamlashga qaratilgan konseptual yondashuvdir.

Ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv rivojlanishdagi o'rni. Ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy inklyuziv rivojlanish

modelining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy maqsadlarni uyg'unlashtirish orqali jamiyatdagi dolzarb muammolarni hal etishga xizmat qiladi [5]. Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. Xususan, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va kam ta'minlangan oilalarning iqtisodiy faolligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik mahalliy hamjamiyatlarning rivojlanishiga, aholi bandligini ta'minlashga va hududlar o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda inklyuziv rivojlanish siyosatining ustuvor yo'nalishlari. So'nggi yillarda O'zbekistonda inklyuziv rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan qator strategik hujjatlar qabul qilindi. Ushbu siyosatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish; ayollar va yoshlarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash;

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv muhit yaratish;

sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

hududlarni kompleks rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish [6].

Mazkur chora-tadbirlar jamiyatda ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy innovatsiyalar va ijtimoiy kapitalning ahamiyati. Ijtimoiy tadbirkorlikning samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy innovatsiyalar va ijtimoiy kapital bilan bog'liq. Ijtimoiy innovatsiyalar jamiyat muammolarini hal etishning yangi usullarini yaratishga xizmat qiladi [7]. Robert Putnam ta'kidlaganidek, ijtimoiy kapital fuqarolar o'rtasidagi ishonch, hamkorlik va o'zaro aloqalar tizimidan iborat bo'lib, jamiyat taraqqiyotining muhim resursi hisoblanadi [8]. Ijtimoiy tadbirkorlik ana shu kapitalni shakllantirish va rivojlantirish orqali inklyuziv rivojlanishning institutsional asoslarini mustahkamlaydi.

Zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari. Tahlillar O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik va inklyuziv rivojlanish siyosatining quyidagi tendensiyalarini ko'rsatmoqda:

ijtimoiy loyihalarning soni va ko'lamining ortishi; davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi; raqamli texnologiyalar asosida ijtimoiy xizmatlarning kengayishi;

ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarining kuchayishi;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining faollashuvi [9].

Mazkur tendensiyalar mamlakatda inklyuziv rivojlanishning yangi bosqichga ko'tarilayotganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tadbirkorlik va inklyuziv rivojlanish siyosati o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy resurslar va ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali inklyuziv rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini kuchaytiradi, aholining ijtimoiy faolligini oshiradi va ijtimoiy kapitalning rivojlanishiga ko'maklashadi. Natijada jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida hamkorlik va ishonch muhiti shakllanadi.

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishi "inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan

islohotlarning amaliy natijalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik va inklyuziv rivojlanish siyosati so'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, balki aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va jamiyatdagi dolzarb muammolarni hal etishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, inklyuziv rivojlanish siyosati iqtisodiy taraqqiyot natijalaridan aholining barcha qatlamlari teng foydalanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

inklyuziv rivojlanish jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan taraqqiyot modelidir;

ijtimoiy tadbirkorlik inklyuziv rivojlanishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi;

ijtimoiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi;

ijtimoiy innovatsiyalar va ijtimoiy kapital inklyuziv rivojlanishning muhim resurslari hisoblanadi;

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat inklyuziv rivojlanish tamoyillariga asoslanmoqda;

ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirkorlik va inklyuziv rivojlanish siyosati zamonaviy O'zbekiston taraqqiyotining o'zaro bog'liq strategik yo'nalishlari sifatida jamiyat farovonligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim omillari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. World Bank. Inclusion Matters: The Foundation for Shared Prosperity. Washington DC, 2013.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF-158-son. "O'zbekiston 2030" strategiyasi. 11.09.2023.
3. OECD. Inclusive Growth Framework. Paris: OECD Publishing, 2021.
4. Amartya Sen. Development as Freedom. New York: Alfred A. Knopf, 1999.
5. Dees J.G. The Meaning of Social Entrepreneurship. Stanford University, 2001.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023.
7. Mulgan G. Social Innovation: What It Is, Why It Matters and How It Can Be Accelerated. London: Young Foundation, 2007.
8. Robert D. Putnam. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. Princeton: Princeton University Press, 1993.
9. United Nations Development Programme. Human Development Report. New York, 2024. United Nations Development Programme
10. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.